

O'ZBEKISTON TABIIY RESURLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI VA EKOLOGIK BARQARORLIK MUAMMOLARI

Erkayeva H

TDSHU iqtisodiyot yo'nalishi 1-kurs talabasi.

Kambarova Sh.M

Ilmiy rahbar: katta o'qituvchi, (PhD)

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasining tabiiy boyliklari, ularning iqtisodiy taraqqiyotdagi o'rni va ulardan oqilona foydalanishning zamonaviy muammolari keng qamrovda tahlil etiladi. Tadqiqot davomida tabiiy resurslarning tasnifi, ularning hududiy joylashuvi hamda antropogen omillar ta'sirida yuzaga kelayotgan ekologik muammolar yoritilgan. Shu bilan birga, suv, tuproq va atmosfera havosining ifloslanishi, biologik xilma-xillikning kamayishi hamda iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlari ilmiy asosda tahlil qilinadi. Maqolada barqaror rivojlanish tamoyillari asosida "yashil iqtisodiyot"ga o'tish zarurligi asoslab beriladi.*

Kalit so'zlar: *tabiiy resurslar, ekologiya, barqaror rivojlanish, suv tanqisligi, tuproq degradatsiyasi, yashil iqtisodiyot*

PROBLEMS OF THE EFFICIENCY OF THE USE OF NATURAL RESOURCES OF UZBEKISTAN AND ENVIRONMENTAL SUSTAINABILITY

TSUOS economy course 1st year student **Erkayeva H.**

Scientific leader: Senior Lecturer, (PhD) **Kambarova Sh.M.**

Abstract: *This article provides a comprehensive analysis of the natural resources of the Republic of Uzbekistan, their role in economic development and modern problems of their rational use. The study covers the classification of natural resources, their territorial location and environmental problems arising under the influence of anthropogenic factors. At the same time, the pollution of water, soil and atmospheric air, the reduction of biodiversity and the negative consequences of climate change are analyzed on a scientific basis. The article substantiates the need to transition to a "green economy" based on the principles of sustainable development.*

Keywords: *natural resources, ecology, sustainable development, water scarcity, soil degradation, green economy*

ПРОБЛЕМЫ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПРИРОДНЫХ РЕСУРСОВ УЗБЕКИСТАНА И ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ

ТГУВ экономика студентка 1 курса **Еркаева Х.**

Научный руководитель: старший преподаватель, (PhD) **Камбарова Ш.М.**

Аннотация: В данной статье представлен комплексный анализ природных ресурсов Республики Узбекистан, их роли в экономическом развитии и современных проблем их рационального использования. Исследование охватывает классификацию природных ресурсов, их территориальное расположение и экологические проблемы, возникающие под влиянием антропогенных факторов. Одновременно на научной основе анализируются загрязнение воды, почвы и атмосферного воздуха, сокращение биоразнообразия и негативные последствия изменения климата. В статье обосновывается необходимость перехода к «зеленой экономике», основанной на принципах устойчивого развития.

Ключевые слова: природные ресурсы, экология, устойчивое развитие, дефицит воды, деградация почв, зеленая экономика

KIRISH

Bugungi kunda tabiiy resurslardan foydalanish masalasi insoniyat oldida turgan eng muhim global muammolardan biri hisoblanadi. Aholi sonining ortishi, sanoatlashuv jarayonining jadallashuvi va urbanizatsiya darajasining oshishi natijasida tabiiy boyliklarga bo'lgan ehtiyoj keskin ortib bormoqda. Bu esa o'z navbatida resurslardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

O'zbekiston tabiiy boyliklarga boy mamlakatlardan biri bo'lib, uning hududida turli xil foydali qazilmalar, unumdor yer resurslari, suv manbalari hamda boy o'simlik va hayvonot dunyosi mavjud. Inson tabiatdan oladigan barcha moddiy boyliklar — yer, suv, havo, o'simlik va hayvonot olami tabiiy resurslar sifatida qaraladi.¹²¹

Ushbu resurslar mamlakat iqtisodiy rivojlanishining asosini tashkil etadi. Shu bilan birga, resurslardan noto'g'ri foydalanish natijasida ekologik muammolar tobora keskinlashib bormoqda. Ayniqsa, Orol dengizi muammosi, suv tanqisligi, havo ifloslanishi va tuproq degradatsiyasi kabi masalalar bugungi kunda dolzarb hisoblanadi.

Asosiy qism: O'zbekistonning tabiiy boyliklari mamlakat iqtisodiy salohiyatini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Yer osti boyliklari orasida oltin, uran, tabiiy gaz va neft kabi strategik resurslar alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu resurslar sanoatning rivojlanishiga xizmat qilib, davlat byudjetiga katta daromad keltiradi.

Shu bilan birga, yer usti boyliklari — suv, tuproq va biologik resurslar qishloq xo'jaligi va aholi turmush darajasini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ammo iqtisodiy faoliyatning kengayishi atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Sanoat korxonalari, transport vositalari va energetika tizimlari havoni ifloslantiruvchi asosiy manbalardan hisoblanadi. Respublikada har yili katta miqdorda zararli moddalar atmosferaga chiqarilib, bu aholi salomatligiga jiddiy xavf tug'dirmoqda.

¹²¹ O'zbekistonning tabiiy boyliklari va ularni muhofaza qilish, O'zbekistonning tabiiy boyliklari va ularni muhofaza qilish, <https://geografiya.uz/ozbekiston-tabiiy-geografiyasi/11722-ozbekistonning-tabiiy-boyliklari-va-ularni-muhofaza-qilish.html>

Ayniqsa, yirik shaharlarda havoning ifloslanishida transport vositalarining ulushi juda yuqori bo'lib, ba'zi hududlarda bu ko'rsatkich 80 foizga yetadi¹²².

2030-yilgacha bo'lgan davrda atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabrdagi PF-5863-son Farmoni orqali tasdiqlangan bo'lib, u tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, sanitariya va ekologik holatni yaxshilashni nazarda tutadi.¹²³

Suv resurslari bilan bog'liq muammolar ham alohida e'tibor talab etadi. O'zbekiston qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan davlat bo'lgani sababli suvdan foydalanish darajasi juda yuqori. Eskirgan sug'orish tizimlari va suvni tejamaslik natijasida katta miqdordagi suv yo'qotilmoqda. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatda suv resurslaridan foydalanish samaradorligi past bo'lib, bu kelajakda jiddiy ekologik va iqtisodiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Tuproq resurslari ham inson faoliyati natijasida zarar ko'rmoqda. Sug'orish tizimlarining noto'g'ri tashkil etilishi, mineral o'g'itlarning haddan tashqari qo'llanilishi va eroziya jarayonlari tuproq unumdorligini pasaytiradi. Bu esa qishloq xo'jaligi mahsuldorligining kamayishiga olib keladi. Tuproqning tiklanishi juda sekin jarayon bo'lgani sababli, uning degradatsiyasi uzoq muddatli salbiy oqibatlariga olib keladi.

Biologik xilma-xillikning kamayishi ham dolzarb ekologik muammolardan biridir. So'nggi yillarda ko'plab hayvon va o'simlik turlari kamayib ketgan, ayrimlari esa butunlay yo'qolgan. Masalan, Turon yo'lbarisi kabi noyob hayvonlarning yo'qolib ketishi ekologik muvozanatning buzilganidan dalolat beradi.¹²⁴ Bu jarayon asosan insonning noto'g'ri xo'jalik faoliyati, yashash muhitining buzilishi va noqonuniy ov qilish bilan bog'liq. Iqlim o'zgarishi ham O'zbekiston uchun jiddiy muammolardan biri hisoblanadi. Haroratning oshishi, yog'ingarchilik miqdorining kamayishi va qurg'oqchiliklarning ko'payishi qishloq xo'jaligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa oziq-ovqat xavfsizligi masalasini yanada dolzarb qiladi.

Zamonaviy sharoitda ushbu muammolarni hal etish uchun "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasiga o'tish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu konsepsiya tabiiy resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan. Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish va ekologik toza ishlab chiqarishni rivojlantirish ushbu yo'nalishning asosiy tarkibiy qismlari hisoblanadi. Matbuot ma'lumotiga ko'ra Prezidentimiz tabiatni muhofaza qilish sohasidagi chora-tadbirlarni ko'rib chiqilishi davomida, maishiy chiqindilarni yoqish orqali elektr energiyasi ishlab chiqarish bo'yicha yirik investitsiya loyihalarining borishi to'g'risida ham axborot berdilar. Unga ko'ra umumiy qiymati 933 million dollar bo'lgan 6 ta zavodni qurish ishlari Andijon,

¹²² Xalmuratov M.A., Shaharlardagi atmosfera sofligini ta'minlovchi o'simliklar
https://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences/0055/55_i_20241122_173546_1.40.pdf

¹²³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" Farmoni. PF-5863-son 30.10.2019 yildagi. <https://lex.uz/docs/-4574008>

¹²⁴ Siddiqova Y.H. Biologik xilma-xillikni saqlash va yo'qolib borayotgan xayvon turlarini muhofaza qilish. "Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: nazariya va amaliyot" nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya. <https://inlibrary.uz/index.php/zdit/article/view/113293>

Namangan, Farg'ona, Samarqand, Qashqadaryo va Toshkent viloyatlarida amalga oshirilmoqda. Bu zavodlar ishga tushgach, yiliga 3,6 million tonna qattiq maishiy chiqindi qayta ishlanib, 1,6 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqariladi. Keyingi bosqichda 633 million dollarlik yana 5 ta zavod qurish bilan bog'liq ishlarni boshlashga ko'rsatma berildi.¹²⁵

Davlat tomonidan atrof-muhitni muhofaza qilish borasida qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Qo'riqxonalar, milliy bog'lar va biosfera rezervatlari tashkil etilishi tabiiy boyliklarni saqlashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, ekologik qonunchilikni takomillashtirish va nazoratni kuchaytirish ham muhim ahamiyatga ega bo'lgan ekologik muammolarni hal etishda inson omili ham muhim rol o'ynaydi. Aholining ekologik madaniyatini oshirish, tabiatga nisbatan ongli munosabatni shakllantirish orqali atrof-muhitni muhofaza qilish samaradorligini oshirish mumkin.

Xulosa: O'zbekiston tabiiy boyliklarga boy bo'lishiga qaramay, ularni oqilona boshqarish va muhofaza qilish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Sanoatlashuv va urbanizatsiya jarayonlari ekologik muammolarni kuchaytirib, tabiiy muvozanatga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Kelajakda barqaror rivojlanishga erishish uchun tabiiy resurslardan samarali foydalanish, ekologik siyosatni kuchaytirish va "yashil iqtisodiyot" tamoyillarini keng joriy etish zarur. Shu bilan birga, har bir inson tabiatni asrashga mas'ul ekanligini anglab yetishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shoymardonova M.Q. O'zbekistonning tabiiy boyliklari va ularni muhofaza qilishning ilmiy asoslari. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2019. – 256 b.
2. Jahon banki. O'zbekiston: mamlakatning ikkinchi tizimli diagnostikasi. – Vashington, 2022. – 134 b.
3. Bo'riyeva M., Tojiyeva Z. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2018. – 312 b.
4. Rafiqov A., Vahobov H. Amaliy geografiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2017. – 280 b.
5. Soatov A., Abduqosimov A. Geografiya. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2016. – 240 b.

¹²⁵ O'zbekiston Prezidenti tabiatni muhofaza qilish sohasidagi chora-tadbirlarni ko'rib chiqdi, 30.04.2026.
<https://president.uz/oz/lists/view/9163>